

BOSHLANG`ICH SINIF O`QISH VA MATEMATIKA DARSLARIDA XALQARO BAHOLASH DASTURIGA (PIRLS, TIMSS) DOIR TOPSHIRIQLARNI TATBIQ ETISH METODIKASI

Maxkamova Muattar Uktamovna, Mahmudova Namuna

TDPU Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi II bosqich magistrantlari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6585116>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang`ich sinf "O`qish" darsligidagi matnlar va "Matematika" darsligidagi mashqlar asosida PIRLS hamda TIMSS xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik mashqlari tuzish va amaliyotga joriy etish metodikasi keltirilgan.

Kalit so`zlar: "O`qish" darslari, Xalqaro baholash dasturlari, PIRLS xalqaro tadqiqoti, TIMSS xalqaro baholash dasturi, Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA).

МЕТОДИКА ВЫПОЛНЕНИЯ ЗАДАНИЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНОЧНОЙ ПРОГРАММЫ (PIRLS, TIMSS) ПО ЧТЕНИЮ И МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье представлена методика разработки и выполнения подготовительных упражнений к международным оценочным программам PIRLS и TIMSS на основе текстов учебника «Чтение» и упражнений учебника «Математика».

Ключевые слова: курсы чтения, международные программы оценки, международное исследование PIRLS, международная программа оценки TIMSS, Международная ассоциация по оценке образовательных достижений (IEA).

METHODS OF IMPLEMENTATION OF TASKS FOR THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM (PIRLS, TIMSS) IN PRIMARY SCHOOL READING AND MATHEMATICS

Annotation. This article presents a methodology for the development and implementation of preparatory exercises for PIRLS and TIMSS international assessment programs based on the texts in the textbook "Reading" and exercises in the textbook "Mathematics".

Keywords: Reading Courses, International Assessment Programs, PIRLS International Survey, TIMSS International Assessment Program, International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

KIRISH

Yosh avlodni bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan taraqqiyot davrining munosib vakillari qilib yetishtirish, jahon andozalariga mos keluvchi yuksak bilim va idrokni shakllantirish maqsadini amalga oshirish uchun, avvalambor, milliy ta'lim tizimini isloh qilgan holda, uning an'anaviy texnologiyalariga qo'shimcha ravishda dunyo mamlakatlari tajribasidan ham foydalanish samarali natija beradi. Xalqaro standartlarga javob bera oluvchi kadrlarni yetishtirishda jahon reytingida o'z o'rniga ega bo'lgan ta'lim tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar bilimni baholashning xalqaro me'zonlari ham mavjud bo'lib, aynan ular dunyo bo'ylab ta'lim tizimi reytingini aniqlashga asos bo'ladi.

Bugun o'quvchilar bilimni baholashning turli xalqaro dasturlari: PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS kabi tushunchalar O'zbekiston ta'lim tizimida ko'p uchramoqda. Respublikamizda ushbu tadqiqotlarni joriy etish to'g'risidagi turli farmon va qarorlar ushbu dasturlarni chuqur o'rganish

va amaliyotga joriy etish naqadar muhim vazifa ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 2020-yil 29 –aprelda imzolangan " O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" Prezident Farmoni va boshqa bir qator qaror va farmonlar aynan shu maqsadni ko'zlagan holda qabul qilingan. Qisqacha qilib aytganda, xalqaro tadqiqotlar natijalari yoshlarimizning hayotga qanchalik tayyorlanayotgani va buning uchun ularga taqdim etilayotgan ta'lim dasturlari bugungi kun talabiga qanchalik javob berishini ko'rsatib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'riladi. Chunki PIRLS – 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish savodxonligini aniqlovchi dastur. Ushbu dastur orqali o'quvchilar matnini qay darajada tushunganliklarini xalqaro me'yor darajasida tekshirish hamda ta'lim siyosatiga oid statistik ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir.

Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

Butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmiy kitoblar) yoki o'quvchilarga atrofidagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi.

PIRLS tadqiqotida tushunib o'qishni baholashga yo'naltirilgan topshiriqlar quyidagi foizlarda taqsimlanadi:

- Aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topish 20%;
- To'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish 30%;
- G'oyalar va axborotni umumlashtirish, talqin qilish va uyg'unlashtirish 30%;
- Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish 20%.

Matn baholash va tanqidiy tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Matnda berilgan ma'lumotning aniq va to'liqligini baholash;
- Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash;
- Insonlarning o'ylari va bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash;
- Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash;
- Metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta'sirini tasvirlash;
- Muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash.

Topshiriqlar murakkablik darajasiga ko'ra 0 balldan 3 ballgacha baholanadi.

Tadqiqotda o'rtacha 500-800 so'zdan iborat matnlardan foydalaniladi va bu mamlakatlarning reytingdagi o'rniga ko'ra tanlanadi. Masalan, o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan davlatlarga 400-500 so'zli, yuqori darajadagi mamlakatlarga esa 1000 tagacha so'zdan iborat bo'lgan matnlar beriladi. Dasturda ilk marta ishtirok etayotgan davlatlar reytingini aniqlashda ularga yuqori darajali matnlar berish orqali natijalar tahlil qilinadi.

Natijalarni baholash tartibi PIRLS da bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun quyidagi tizim qo'llaniladi:

- javobni tanlash usulidagi to'g'ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;
- mavzu ketma-ketligini belgilash borasidagi to'g'ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;
- erkin javob berish kerak bo'lgan topshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab 1 ball dan 3 ballgacha baholanadi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan PIRLS dasturiga mos keluvchi topshiriqlar hamda ularni baholash me'zonlari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ulardan qo'shimcha yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. O'qish darslarida esa, matn o'rganilgandan so'ng, mavzuni mustahkamlashda shunga o'xshash topshiriqlardan foydalanish o'zining amaliy natijasini beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilimni baholashning Xalqaro tadqiqotlaridan yana bir muhimi TIMSS dasturidir. TIMSS – ham jahon mamlakatlari ta'lim tizimida keng tadbir etilmoqda. TIMSS dasturi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) testi birinchi bo'lib 1995 yilda amalga oshirilgan. Uning maqsadi matematika va tabiiy fanlar sohasida o'qitish sifatini qiyosiy tahlil qilish edi. 1995 yilda uchinchi, to'rtinchi, ettinchi, sakkizinchi va o'n birinchi sinf o'quvchilari o'qishga taklif qilindi. Bugungi kunda unda faqat to'rtinchi va sakkizinchi sinf o'quvchilari qatnashmoqda. Mazkur tadqiqotda o'quvchilar orasida matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Tadqiqotning yana bir afzal tarafi shuki, o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalar o'tkazadi va fan sohasida to'stinlik qilayotgan asosiy sabablarni aniqlaydi, tahlil qilinadi va shu omillar yechimi yuzasidan ish olib boriladi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi.

Sinov mualliflari testlarni talabalar uchun qiziqarli jarayonga aylantirish uchun savollarni qiziqarli va ijodiy qilishga harakat qilishadi, ammo har bir topshiriq uchun belgilangan mavzular bo'yicha baholash mezonlari mavjud. Asosiy sinovlardan tashqari, ba'zida yaratuvchilar TIMSS Advanced-ni o'tkazadilar, unda o'rta maktab bitiruvchilari ishtirok etadilar. Bunday tadqiqot har qanday davlatda ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi va aniqlangan kamchiliklarni ustida ish olib borilishi tufayli ta'lim tizimida rivojlanishga olib keladi, bu esa o'z-o'zidan yosh avlodning bilim darajasini yuqori cho'qqilarga ko'tarilishida zamin bo'la oladi.

2019-yil TIMSS tadqiqotlari raqqmli formatda o'tkazildi va natijalarga ko'ra AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan.

Xalqaro baholash dasturi (TIMSS) dagi tizim o'quvchini hayot bilan bo'g'laydi va kelajakda muammolarni qiyinchiliklarsiz yechimini topishga, egallagan bilim ko'nikmalarini

hayot yo`lida qo`llay olishga o`rgatadi. Buning uchun esa albatta avval pedagog-o`qituvchining bilimni Xalqaro baholash dasturi talablari darajasida qayta tayyorlash, bilim ko`nikmalarini shakllantirish, eskilik sarqitlaridan xalos etish lozim. Shulardan kelib chiqib, Ta`lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Milliy ta`lim tizimini isloh qilish, ta`lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo`llaniladi.

- Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta`lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o`rni to`g`risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

- Xalqaro tadqiqotlar ta`lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o`tkazishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

- Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

- O`zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o`tkazish madaniyati rivojlanadi, ta`lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

- Milliy ta`lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo`llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Bu imkoniyatlar nafaqat sog`lom, yetuk va aqliy salohiyati yuqori bo`lgan kelajak avlodni tarbiyalabgina qolmay, balki Yurtimiz ravnaqiga, siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy o`shishiga zamin yaratiladi.

NATIJALAR

Yuqoridagi mezonlarga tayangan holda 4-sinf o`quvchilarning o`qish va matematika savodxonligini tekshirishga doir Xalqaro tadqiqotlar mezoniga mos topshiriq namunalaridan keltirdik.

O`qish savodxonligi: 4 – sinf o`qish darsligidagi Farhod Musajonning “Yomg`ir” hikoyasi asosida quyidagicha topshiriq ishlab chiqish mumkin:

Savollar: “Yomg`ir”

1. Erkinjon nega maktabga borgisi kelmadi?

- A. Yomg`ir yog`ayotgani uchun
- B. Uyquga to`ymagani uchun
- C. Momaqaldiroqdan qo`rqqani uchun
- D. Tobi yo`qligi uchun

2. Nega Erkinjon o`z-o`ziga kasaldek tuyuldi?

3. Nega Halima opa xavotirga tushib, Erkinjonning atrofida girdikapalak bo`lib qoldi?

- A. Chunki Erkinjonning isitmasi bor edi
- B. Erkinjon “boshim og`riyapti” degani uchun
- C. Ishga shoshayotgani uchun
- D. Erkinjon maktabga kech qolayotgani uchun

4. Nima uchun Erkinjon maktabdan qaytayotgan o`rtoqlarini ko`rib, xo`rsinib qo`ydi?

5. Erkinjonni tekshirgani kelgan Shifokorning tashqi ko`rinishini tasvirlang.
6. Erkinjon shifokorning “qayering og’riyapti?” degan savoliga nega javob bera olmadi?
- A. Boshi qattiq og’riyotgandi
 - B. Isitmasi baland edi
 - C. Hech qayeri og’rimayotgandi
 - D. U shifokorlardan qo`rqardi
7. Shifokor erkinjonga dori yozib bergach, nimalar dedi?

-
8. Erkinjon nega shifokorni “dovdirroq” deb o`yladi?
- A. Shifokor juda shoshqaloqligi uchun
 - B. Kasal bo`lmasa ham unga dori yozib bergani uchun
 - C. Unga tanbeh bergani uchun
 - D. Uni uzoq tekshirgani uchun
9. Halima opa nega shifokor yozib bergan dorilarni o`qib xavotir bilan o`tirib qoldi?

-
10. Erkinjonning kasali qanday kasal deb o`ylaysiz va sizningcha, bu kasallik qanchalik xavfli?

-
11. Hikoyaning bosh g`oyasi nima deb o`ylaysiz?

Baholash mezon:

1-vazifa. Erkinjon nega maktabga borgisi kelmadi?

Javob: A

2-vazifa. Nega Erkinjon o`z-o`ziga kasaldek tuyuldi?

Maqsad: Badiiy adabiyotni o`qish tajribasini oshirish.

Faoliyat: Matn elementlari va til ma`nosini baholash va tahlil qilish.

To`liq tushunish - 2 ball

Javob mazmuni: Javobda Erkinjonning yalqovligi, onasining mehribonligini ko`rib erkalanib ketgani aks etadi.

Qisman tushunish – 1 ball

Javob mazmunida Erkinjonning maktabga borgisi kelmaganligi aks etadi.

Noto`g`ri tushunish – 0 ball

Javob umuman savol mazmuniga mos emas.

3-vazifa. Nega Halima opa xavotirga tushib, Erkinjonning atrofida girdikapalak bo`lib qoldi?

Javob: B

4-vazifa. Nima uchun Erkinjon maktabdan qaytayotgan o`rtoqlarini ko`rib, xo`rsinib qo`ydi?

Maqsad: Badiiy adabiyot o`qish tajribasini oshirish.

Faoliyat: Xulosalar ketma-ketligi.

To`liq tushunish – 2 ball

Javobda Erkinjon maktabga bormagni uchun hijolat bo`lgani hamda onasiga yolg`on gapirgani uchun ko`ngli g`ashligi aks etadi.

Qisman tushunish – 1 ball

Javobda Erkinjonning maktabga bormagani uchun hijolatligi yoki onasini aldaganidan uyalganligi haqidagi fikrlarning biri aks etadi.

Noto'g'ri tushunish – 0 ball

Javob mazmuni savolga yoki matn mazmuniga umuman mos kelmaydi.

5-vazifa. Erkinjonni tekshirgani kelgan Shifokorning tashqi ko'rinishini tasvirlang.

Maqsad: Badiiy adabiyotni o'qish tajribasini oshirish

Faoliyat: Yaqqol ko'rinishda berilgan ma'lumotlarni topish.

Javob qabul qilinadi – 1 ball

Javobda shifokorning tashqi ko'rinishi matndagi kabi tasvirlanadi.

Javob qabul qilinmaydi – 0 ball

Javobda matn mazmuniga mos bo'lmagan tasvir aks etadi.

6-vazifa. Erkinjon shifokorning “qayering og'riyapti?” degan savoliga nega javob bera olmadi?

Javob: C

7- vazifa. Shifokor erkinjonga dori yozib bergach, nimalar dedi?

Maqsad: Badiiy adabiyotni o'qish tajribasini oshirish

Faoliyat: Yaqqol ko'rinishda berilgan ma'lumotlarni topish.

Javob qabul qilinadi – 1 ball

Javobda shifokorning so'zlari matndagi so'zlari ma'nosiga qisman yoki to'liq mos bo'ladi.

Javob qabul qilinmaydi – 0 ball

Javobda shifokorning so'zlari matn mazmuniga umuman mos kelmaydi.

8-vazifa. Erkinjon nega shifokorni “dovdirroq” deb o'yladi?

Javob: B

9-vazifa. Halima opa nega shifokor yozib bergan dorilarni o'qib xavotir bilan o'tirib qoldi?

Maqsad: Badiiy adabiyotni o'qish tajribasini oshirish

Faoliyat: Yaqqol ko'rinishda berilgan ma'lumotlarni topish.

Javob qabul qilinadi – 1 ball

Javob mazmunida shifokor yozib ketgan qog'ozdagi so'zlar qisman yoki to'liq aks etadi.

Javob qabul qilinmaydi – 0 ball

Javob savol yoki matn mazmuniga umuman mos emas.

10-vazifa. Erkinjonning “kasali” qanday kasal deb o'ylaysiz va sizningcha, bu kasallik qanchalik xavfli?

Maqsad: Badiiy adabiyotni o'qish tajribasini oshirish

Faoliyat: Mustaqil fikr bildirish.

To'liq tushunish – 2 ball

Javobda o'quvchi Erkinjonning “kasali” ni tavsiflay oladi va mustaqil baholay oladi.

Qisman tushunish – 1 ball

Javob mazmunida qisqacha tavsif hamda munosabat bo'ladi yoki munosabat umuman bo'lmaydi.

Noto'g'ri tushunish – 0 ball

Javob savol yoki matn mazmuniga umuman mos emas.

11-vazifa. Hikoyaning bosh g'oyasi nima deb o'ylaysiz?

Maqsad: Badiiy adabiyotni o'qish tajribasini oshirish

Faoliyat: Xulosa chiqarish.

Javob qabul qilinadi – 1 ball

Javobda hikoyaning asosiy g'oyasi qisman yoki to'liq aks etadi.

Javob qabul qilinmaydi – 0 ball

Javob savol yoki matn mazmuniga umuman mos emas.

Matematika savodxonligi: TIMSS (2019) Xalqaro baholash dasturidagi topshiriqlardan namunalari:

1 – topshiriq. Noila 1 – sondan boshlab, "4 taga orttir" qoidasini ishlatib, ketma-ketlikni amalga oshirdi. Noilaning ketma-ketligi qanday edi?

A) 1, 4, 8, 12, 16 B) 1, 4, 16, 64, 256

C) 1, 5, 9, 12, 16 D) 1, 5, 9, 13, 17

2 – topshiriq. Bo'yoq 5 litrlik banklarda sotiladi. Toxirga 37 litr bo'yoq kerak. U necha banka bo'yoq sotib olish kerak?

3 – topshiriq Doira, ichiga (.) foydalanib, teng yonli uchburchak chizing.


4 – topshiriq Lola yuzligi bo'lmagan (0), toq, besh xonali son yozdi. Shu sonni aniqlang.

A)100051 B)14037 C)48303 D)24074



5 – topshiriq . Kozim to'g'ri to'rtburchak shaklidagi tennis maydonchasini aylanib chiqib, uni 72 qadamligini aniqladi. Maydonchani bo'yi 11 qadam bo'lsa, bo'yi necha qadam bo'ladi?

6 – topshiriq . O'qituvchi o'quvchilarga: "Shunday shaklni belgilangki, uni bitta chiziq yordamida kvadrat va to'g'ri burchakli uchburchak hosil bo'lsin."- deb topshiriq beradi. Ular qaysi shaklni belgilashgan?



7 – topshiriq. Berilgan ketma – ketlikdagi so'nggi raqamni aniqlang:

18, 27, 36, 45, 54, ____ .

8 – topshiriq. Qaysi o'lchov birlikda tanga og'irligini aniqlash mumkin?

A) grammda B) kilogrammda C) sentnerda D) tonnada

9 – topshiriq. Berilgan ketma – ketlik qonuniyatini aniqlang: **8, 20, 44, 92.**

A) Berilgan raqamni 3 ga ko'paytirib, natijadan 4 ni ayirish;

B) Berilgan raqamni 2 ga ko'paytirib, natijaga 4 ni qo'shish;

C) Berilgan raqamni 2 ga bo'lib, natijani 5 ga ko'paytirish;

D) Berilgan raqamni 4 ga bo'lib, natijani 10 ga ko'paytirish.

10 – topshiriq. Yuk mashinasiga 1 tonna yuk ortish mumkin. Omborxonada 1200kg yuk bor. Yukning barini yuk mashinada bitta reysda manzilga yetkazish mumkinmi?

MUHOKAMA

Ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf o'qish darsligidagi matnlar asosida PIRLSga doir topshiriqlar ishlab chiqish va dars jarayonida ulardan foydalanish nafaqat o'qish savodxonligini oshirishga, balki izchil va mantiqli xulosalar chiqarish ko'nikma va malakalarini egallash hamda butun dunyo bo'ylab o'tkazib kelinayotga PIRLS tadqiqotiga mustahkam tayyorgarlik ko'rishga xizmat qilasa, TIMSS tadqiqotidagi tizim o'quvchini hayot bilan bo'g'laydi, uni kelajakda qiyinchiliklarsiz yashashga, egallagan bilim ko'nikmalarini hayot yo'lida qo'llay olishga o'rgatadi. Bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimi reytingini oshirishga qaratilgan eng to'g'ri yo'ldir.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Xalqaro baholash dasturi o`quvchi va talabalarni nafaqat bilimli qilibgina qolmay, kelajakda hayot yo`lida, kundalik turmush jarayonida uchraydigan muammolarni qiyinchiliklarsiz hal etishga, faqatgina o`zi tanlagan bir yo`nalishda kasb egasi bo`libgina qolmay, aqliy salohiyatidan kelib chiqib bir vaqtning o`zida turli xil hunar egallashiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta`limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PF-538-son Farmoni.2018-yil 5-sentabr.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.“Xalq ta`limi tizimida ta`lim sifatini baholash sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etish chora- tadbirlari to`g`risida”qaror. 2018-yil, 8-dekabr.
3. Ta`lim sifatini baholash bo`yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. **Xalqaro tadqiqotlarda boshlang`ich sinf o`quvchilarining o`qish savodxonligini baholash. Boshlang`ich sinf o`qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo`llanma.** «Sharq» nashriyot-matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2019
4. A.A.Ismailov va boshqalar .Xalqaro tadqiqotlarda o`quvchilarning matematik savodxonligini baholash (metodik qo`llanma). Ta`lim inspeksiyasi huzuridagi Ta`lim sifatini baholash bo`yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019-yil. “Sharq”-mail: info@ xtv.uzedu.uz
5. Сборник тестовых заданий TIMSS. – АО «Информационноаналитический центр»: Астана, 2016 -537 с.
6. O`qish kitobi. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. «Yangiyo`l poligraf servis». Toshkent - 2017